


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**
1930



Xamidov

2023 y

**MANBASHUNOSLIK
FANING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalisi:	60211000 – San’tshunoslik (musiqashunoslik)

Buxoro-2023

Fan/modul kodi MSHK4102	O'quv yili 2023-2024	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
Manbashunoslikka kirish	30	30	60	
2. I. Fanning mazmuni				
<p>Fanni o'qitishning maqsadi – talabalarga ushbu fan sohasi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish hamda Markaziy Osiyo tarixini va madaniyatini manbalar va san'at asarlari asosida mustaqil o'rganish malakasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifalari - Manbashunoslikning predmeti va ob'ekti, tadqiqot va manbalarning turlarini va tadqiqotlar natijalarini jamlash, manbashunoslikning nazariy masalalarini, manbalarni ichki va tashqi tahlil qilishni hamda, manbalarni har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilishni shakllantirish.</p>				
II. Asosiy amaliy mashg'ulotlar.				
III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
<p>1-mavzu. Manbashunoslik fanining maqsadi, vazifalari va ilmiy ahamiyati. Manbashunoslikning yo'nalishlari.</p> <p>Manba, tarixiy manba, birlamchi manba, asl nusxa, avtograf, bitik, bitma, yozma yodgorlik, qo'lyozma, qo'lyozma kitob, toshbosma, litografik kitob, nashr, ommaviy nashr, ilmiy akademik nashr, faksimile, arxeologiya, asosiy arab yozuvlari, ro'yhatga olish, tavsifga olish, tasniflash – kataloglashtirish, fixrist – katalog, kartochna, annotatsiya, monografik tavsif. Amaliy va nazariy manbashunoslik, yozma manbalarni qidirib topish, tavsifga olish va tadqiq qilish.</p>				

<p>2-mavzu. Manbalarni o'rganish va o'rgatish usullari.</p> <p>Mavjud manbashunoslikka oid adabiyotlar asosida manbalarni o'rganish va talabalarga o'rgatish usullarining o'ziga xos xususiyatlari tahlili. Hujjatlarning O'zbekiston tarixining muhim manbalari ekanligi, ularning o'ttiz to'rt turi va eng muhimlari to'g'risida tasavvur beriladi. O'zbekiston tarixiga oid arab, fors va o'zbek tilidagi manbalar, ularning xususiyatlari to'g'risida mu'lumotlar beriladi.</p> <p>3-mavzu. Manbashunoslik tarixi va muammolari.</p> <p>Manbashunoslik fanining paydo bo'lishi, tarixi, o'ziga xos xususiyatlari, manbashunoslikning muammolari, yurtimiz manbashunoslari faoliyati hamda zamonaviy muammolari yoritiladi.</p> <p>4-mavzu. Qadimgi davrda yaratilgan bitiklarning manbashunoslik va san'atshunoslikdagi o'rni.</p> <p>Qadimgi davrga oid bitiklar va ularning Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarsi va madaniy hayoti tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Qadimgi bitiklar to'g'risida tasavvur berish va ulardagi tarix, madaniyat va san'atshunoslik uchun muhim ma'lumotlarni tahlil qilish.</p> <p>5-mavzu. Me'morchilik va arxitektura sohasiga oid san'at asarlari.</p> <p>Me'morchilik ma arxitektura sohasida qo'llanilgan xat va yozuv turlari, san'at asarlari va ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni. Tarixiy obidalarda yaratilgan san'at asarlari to'g'risida talabalarga tushuncha berish.</p> <p>6-mavzu. Sayyoh va elchilar esdaliklari.</p> <p>Yurtimizda bo'lgan elchi va sayyohlarning esdaliklari to'g'risida umumiy ma'lumot berish, ularning tarixni o'rganishdagi ilmiy ahamiyatini ochib berish.</p> <p>7-mavzu. Qadimgi zamon manbalari.</p> <p>O'zbekiston qadimgi tarixiga oid arxeologik manbalari, Eron, Hind, Yunon va Rim manbalari, qadimgi davr san'ati va madaniyati to'g'risida umumiy tushuncha beriladi.</p>
--

8-mavzu. Manbalarni muqovalash san'ati.

Manbalarni muqovalash, bezash, hoshiyalar bitish. Asarlarga sharh yozish. Muqovalash, hoshiyalar bitish, asarlarga sharh yozish uslubining manbashunoslikdagi o'rni.

9-mavzu. VI-XII asrlar manbalarining mazkur davr madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati.

VI-VII asrlardagi madaniy hayot, san'at durdonalari aks etgan so'g'diy, turkiy, va Xitoy manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar. IX—XII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va bu davrda yozilgan arab, fors va turkiy tildagi asosiy tarixiy manbalar va ularning umumiy xususiyatlari to'g'risida.

10-mavzu. XIII-XIV asrlar manbalari.

Vatanimiz madaniyati va tarixiga oid yozma manbalar yozilishida fors tilining tutgan o'rni, u tildagi asosiy manbalar to'g'risida tushuncha beriladi.

11-mavzu. Temuriylar davrida san'at va madaniyat.

Temuriylar davrida o'zbek va fors tilida yozilgan manbalar tahlili. Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy va boshqalarning musiqa sa'natiga oid risolalarda raqs ritmi va usullari.

12-mavzu. Shayboniylar davri manbalari.

Shayboniylar hukmronligi davrida madaniy hayotning rivojlanishi. Madaniyat, adabiyot, me'morchilik, xattotlik san'atining namunalari haqidagi ma'lumotlar. Mazkur davrda yozilgan o'zbek va fors tillaridagi adabiy manbalar tahlili.

13-mavzu. Xonliklar davri san'ati va madaniyati durdonalari.

Buxoro, Xorazm va Qo'qonda yozilgan o'zbek va fors tillaridagi manbalar. Xonliklar davrida yaratilgan memorchilik obidalari va ularda qo'llanilgan xattotlik san'ati.

14-mavzu. O'zbekistonning eng yangi davri manbalari.

Mustaqillik yillarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar aks etgan manbalar to'g'risida umumiy tasavvur berish va ularni tahlil qilish malakasini o'rgatish.

15-mavzu. Hozirda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasidagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 76-maqсад: Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Manbalarni turkumlash usullari.
2. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatiga oid qadimgi manbalar.
3. Arab yozuvigacha ilk o'rta asr yozma manbalari tahlili.
4. Arab yozuvidagi fors va turkiy manbalar.
5. Sharq qo'lyozmalarining sivilizatsiya tarixidagi o'rni.
6. O'zbekistondagi Sharq qo'lyozmalari xazinalari va ularning faoliyati.
7. Markaziy Osiyoda qadimgi bitiklar (qadimgi davrlarda).
8. Markaziy Osiyoning IX-XV asrlar san'ati va madaniyatiga oid yozma manbalar.
9. Markaziy Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixi va madaniyatiga oid yozma meroslari.

<p>10. Markaziy Osiyo san'ati va madaniyatiga oid rus va evropa tillaridagi yozma manbalar.</p> <p>11. XX asr O'zbekiston tarixiga oid manbalar.</p> <p>12. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillaridagi tarixi va madaniyatiga oid manbalar.</p> <p>13. Amir Temur davrida ijtimoiy va madaniy sohadagi o'zgarishlar bayon etilgan manbalar.</p> <p>14. Muhammad Xakimxonning «Muntaxab ut-tavorix» asarlarida Qo'qon xonligi tarixining yoritilishi.</p> <p>15. Markaziy Osiyoda Sovet hukumatining o'rnatilishi: san'at va madaniy hayotning o'zgarishiga bag'ishlangan manbalar tahlili.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3. IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talaba Markaziy Osiyo san'ati, madaniyati, tarixiga oid manbalar va tadqiqotlarni o'rganadi. O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid manba va tadqiqotlarni amalda qo'llash, tadqiqotlarda mavzuning o'rganilish darajasi va manbashunosligi qismi to'g'risida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • San'at asarlarini, manba va tadqiqotlardagi mavjud ma'lumotlarni ob'ektiv, ilmiylik jihatdan tadqiq etish va ularni amalda bajarish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • Talaba manba va tadqiqotlarni turkumlashdagi asosiy tamoyillar, manbashunoslik va san'atshunoslikning rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari, tadqiqotlarning metodologiya masalalari bo'yicha tahlil qilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
<p>4. V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar;

<ul style="list-style-type: none"> • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p>5. VI. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>
<p>6. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Nasrullaev N. Manbashunoslik asoslari. Darslik. - T.: "Navro'z", 2020. 2. Alimova D. Mas'ul muharrir. Manbashunoslik. Darslik. - T.: "Turon-iqbol", 2019. 3. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. Darslik. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b. 2. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1997. 3. Ma'naviyat yulduzlari. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 4. Abduxoliq Abdurasul o'g'li. Qadimgi Farg'ona tarixidan. - T., 2002. 5. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. - T.: "TIU" nashriyot matbaa birlashmasi, 2002. 6. Abduhalimov B. Bayt al-hikma va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. -T.: "TIU" nashriyot matbaa birlashmasi, 2004. 7. Saidboboev Z. Evropada O'rta Osiyoga oid tarixiy-kartografik ma'lumotlar (XVI-XIX asrlar).-T.: Fan. 2008. 8. Tarixiy manbashunoslik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T., 2008. 9. Alimov I. O'zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917-1929). - T.: "Fan" nashriyoti, 2009. 10. Aminov H. Muhammad Rahimxon II. Feruz kutubxonasi fehrisi. -

T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2010.

11. O‘zbekiston tarixi manbashunosligi masalalari. –T., 2010.

Axborot manbalari

1. www.religions.uz
2. www.iiu.uz
3. www.ziyo.uz
4. www.muslim.uz
5. www.buxoriy.uz
6. www.buxoriy.uz
7. www.tarix.uz
8. www.ziyonet.uz

Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas’ular:


Rajabova R. Z. -



BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Namozov B.B.



BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrası professori

Sharipova O.T.

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrası dotsenti